
BAYRAM MUNOSABATI BILAN MODDIY YORDAM VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TARQATILDI

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bayram arafalarida oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatmlayotganligi fuqarolar shodligiga shodlik ulashmoqda.

Farg'ona shahrida ham Qurbon hayiti bayrami munosabati bilan "Mahalla" xayriya jamoat fondi shahar bo'linmasi tomonidan 265 nafar kam ta'minlangan oila vakillariga jami 147 million so'm mikdorida bir martalik moddiy yordam pullari tarqatildi.

Shuningdek, ehtiyojmand oilalarga 8 xil turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ham yetkazib berildi. Fuqarolar berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik uchun Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2022-07-13 09:34:06